



**PRIMQUL QODIROV PROZASINING SHAKLLANISHIDA UNING ILMIY  
MEROSINING TA'SIRI MASALASI  
(YUSUF SHOMANSURNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI  
DOIRASIDA)**

**Tursunoy Jarkinova**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: [tursunoyjarkinova@gmail.com](mailto:tursunoyjarkinova@gmail.com)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15001670>

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Yusuf Shomansurning Primqul Qodirov prozasi haqidagi adabiy-tanqidiy qarashlari tahlilga tortiladi. Ijodkor prozasining shakllanishida ilmiy tafakkuri aks etgan monografiya va maqolalarining ta'siri masalasi tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *proza, roman, qahramonlar tili, adabiy-estetik qarashlari, ilmiy tafakkur.*

**Abstract:** *In this article, Yusuf Shomansur's literary and critical views on Primkul Kadyrov's prose are analyzed. The question of the influence of monographs and articles reflecting the scientific thinking of the author on the formation of his prose is analyzed.*

**Key words:** *prose, novel, language of characters, literary and aesthetic views, scientific thinking.*

Yusuf Shomansur Primqul Qodirov prozasining sayqallanishida uning ilmiy faoliyati katta ta'sir ko'rsatganligini o'z qarashlarida alohida e'tirof etadi. Ilmiy maqolalar, monografiyalar yozish jarayonida orttirgan bilimlari uning roman, hikoya, qissalari badiyatining boyib borishida qo'l kelganligini e'tibordan chetda qoldirmaydi. U Primqul Qodirov prozasini tahlilga tortar ekan, roman janrida zamonaviy asar yozishida Abdulla Qahhroning "Qo'shchinor chiroqlari"ning paydo bo'lishini sinchiklab tekshirganligi u uchun ijodiy laboratoriya vazifasini bajarganligini alohida aytib o'tadi: "Shu narsa xarakterliki, rus va o'zbek klassik adabiyotini hamda hozirgi adabiy jarayonni ayni paytda ham tadqiqotchi, ham yozuvchi sifatida o'rganish va kuzatish P.Qodirovning butun ijodiy yo'lini belgilab keladi. U adabiyotning ijtimoiy ahamiyati haqida xalq hayoti va davr haqiqatini ifodalashdagi roli haqida tinmay o'ylaydi. Uning bunday o'ylari shaxsiy ijodiy tajribasi asnosida chuqurlashib boradi"<sup>1</sup>. Yozuvchining "O'ylar"<sup>2</sup> kitobini, uning mohiyatini taftish qiladi. Tadqiqotchining aytishicha, kitobning zamirida Primqul Qodirovning o'nlab kitoblaridan chiqargan xulosalari yotadiki, unda ijodda haqqoniylik muammosi haqida yozadi, birinchi sharti qilib tabiiylikni saylaydi.

<sup>1</sup> Юсуф Шомансур. Вокеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. кандидати ...дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 109

<sup>2</sup> П.Қодиров. Ўйлар/ бадеалари/. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – 207 б.



Yusuf Shomansur kitobda berilgan adabiy-estetik qarashlari uning asarlarida o'z muhrini qoldirganligini ham aytib o'tarkan, uning ijodda g'alabaniy omillari sifatida talant, mehnat, hayotni va adabiyotni bilish masalalarini bir butunlikka qo'yish prinsipiga "Qora ko'zlar" romanida qat'iy amal qilganligini yuksak baholaydi. Romanning yutuq va kamchiliklarini ham ro'yrost ochib beradi. "Abdulla Qahhor" maqolasida ba'zi o'rinlarida teranlikka erisholmaganligini, "O'ylar" da esa mulohazakorlik o'zini goho oqlamay qolganligini, tahlilbop dalillar keltirilmay qolganligini ijodkorning kamchiliklari etib belgilaydi.

Primqul Qodirovning tadqiqotchi sifatida shakllanishining omillari haqida esa shunday deydi: "Faqatgina Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor kabi o'zbek adabiyotining peshqadam arboblari ijodini o'rganib qolmay, rus klassik adabiyotining hamda M.Avezov, B.Kerboboyev, X.Deryayev kabi qardosh milliy adabiyotlarning namoyondalari asarlaridan ham ijodiy saboq oldi. L.Tolstoy, K.Fedin, X.Deryayev asarlarini esa o'zbek tiliga tarjima qildi. Ana shu jarayonda ijod "sir"l"rin", shu jumladan, qahramon obrazining, uning ichki dunyosini ochish yo'llarini o'rgandi"<sup>3</sup>. Abdulla Qahhorning "Qo'shchinor chiroqlari" asari bilan Primqul Qodirovning "Qora ko'zlar" ini, undagi xarakterlarning o'xshash jihatlarini misollar yordamida aytib o'tadi.

"Xalq tili va realistik proza" monografiyasidagi tahlillar uning nazokatli munaqqidgina emas, balki realistic uslub mohiyatini tobora chuqurroq egallab borishga intilayotgan qalam sohibi ekanligini ko'rsatganligini aytadi. Primqul Qodirovning shu qarashlari o'zining asarlarida qay darajada mujassamlashganligini ulardagi avtor uslubi masalasiga yondashish orqali ko'rib chiqadi. "Studentlar" hikoyasining muallifgina emas, qahramonlar tili va uslubi qashshoq ekanligini, "Uch ildiz" romanida yozuvchi uslubi shakllanganligini, "Qadrim" da esa muallifning o'z asarlariga tanqidchi ko'zi bilan qarashni kanda etmayotganligi ko'ringanligini, jimjimali, dabdabali so'zlardan qalamni tiyish "Qora ko'zlar" romanining tilida yaxshi natijalarga olib kelganligini aytib o'tadi. Primqul Qodirov Abdulla Qahhor asarlarining tili, uslubini tahlil qilib, san'atkorning yutuqlarini ijodiy o'zlashtirganligini alohida qayd etadi: "A.Qahhor tildagi shiradorlikni qahramonlar ruhiyatiga, xatti-harakatiga shunday singdirib yuboradiki, yuqoridagi savol hech kimning ham xayoliga ham kelmaydi. Bu yozuvchining adabiyotdagi shartlilikdan foydalana bilish mahoratidan kelib chiqadi. P.Qodirov o'z romanida A.Qahhorning

<sup>3</sup> Юсуф Шомансур. Вокеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. кандидати ...дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 129.



shu ma'nodagi mahoratidan yaxshi dars olganki, natijada shartlilikka yo'l qo'yilgan paytda ham o'z e'tiqodiga – obrazlar haqqoniyatiga zid qalam surmaydi"<sup>4</sup>.

Yusuf Shomansur o'zbek adabiyotining uch yirik vakili ijodining poydevorini ularning ilmiy qarashlari tashkil qilganligini bayon etarkan, asarlari misolida ochiqlarkan, ilm kishisi sifatidagi qiyofasini to'laqonli namoyon etadi. Adabiyotshunoslikning tub mohiyatini anglab yetgan inson sifatida ularning asarlarini chig'iriqdan o'tkazadi. Bundan tushuniladiki, u olim sifatida qalami ancha sayqallangan yuksak salohiyat egasi edi. Uning dissertatsiyasini adabiyot, ham tanqidchilik ilmidan yaxshigina xabardor bo'lgan insonning qarashlari in'ikosi deyishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirvaliyev S, Shokirova R. O'zbek adiblari. – Toshkent.: Adabiyot va san'at, 2016. – 200 b.
2. Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. кандидати ...дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 109
3. П.Қодиров. Ўйлар / бадеалари/. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – 207 б.

---

<sup>4</sup> Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. кандидати ...дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 147.